Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 97-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
TO‘RAYEV SHAHZOD MUYIDDIN O‘G‘LI
Poliz ekinlari uchun tuproq tayyorlashda kombinatsiyalashgan mashinalarning samaradorligini oshirish yo‘llari.....97

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘K: 631.51

POLIZ EKINLARI UCHUN TUPROQ TAYYORLASHDA KOMBINATSIYALASHGAN MASHINALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

TO‘RAYEV SHAHZOD MUYIDDIN O‘G‘LI
Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
https://orcid.org/0009-0003-0887-0836

Annotatsiya. Mazkur maqolada poliz ekinlari uchun tuproq tayyorlashda zamonaviy agrotexnikada keng qo‘llanilayotgan kombinatsiyalashgan mashinalarning samaradorligini oshirish yo‘llari, ularning afzalliklari hamda ilg‘or tajribalar asosida erishilgan natijalar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari va mavjud adabiyotlar tahlili asosida, tuproq sifatini yaxshilash, unumdorligini oshirish, mehnat va vaqtni tejashga erishish uchun kombinatsiyalashgan mashinalardan foydalanishning ilmiy va amaliy asoslari bayon etiladi.
Kalit so‘zlar: poliz ekinlari, tuproq tayyorlash, kombinatsiyalashgan mashina, samaradorlik, agrotexnika, unumdorlik, innovatsiya, hosildorlik, texnologiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются способы повышения эффективности комбинированных машин, широко используемых в современной агротехнике при подготовке почвы под дыни, их преимущества и результаты, достигнутые на основе передового опыта. На основе результатов исследований и анализа существующей литературы изложены научные и практические основы использования комбинированных машин для улучшения качества почвы, повышения производительности и экономии труда и времени.
Ключевые слова: дыни, подготовка почвы, комбинированная машина, эффективность, агротехника, производительность, инновации, урожайность, технология.

Abstract. This article discusses ways to increase the efficiency of combined machines widely used in modern agricultural technology in soil preparation for melon crops, their advantages and the results achieved based on best practices. Based on the results of the research and the analysis of existing literature, the scientific and practical foundations of using combined machines to improve soil quality, increase productivity, and save labor and time are outlined.
Keywords: melon crops, soil preparation, combined machine, efficiency, agricultural technology, productivity, innovation, yield, technology.

KIRISH

Poliz ekinlari, ya’ni tarvuz, qovun, qovoq, bodring va boshqa shunga o‘xshash hosillar respublikamiz hududida asrlar davomida qadrlanib kelinadi. Ularning o‘sishida tuproq tayyorlash ishlarining roli beqiyos hisoblanadi. Tuproq tayyorlashda tuproqning mexanik tarkibi, namligi, strukturasini to‘g‘ri va sifatli optimallashtirish nafaqat yuqori hosildorlikni, balki poliz ekinlarining sog‘lom va barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Shu sababli, zamonaviy dehqonchilikda poliz ekinlari uchun samarali, tejamkor va ekologik xavfsiz texnika va texnologiyalarni joriy qilish masalasi doimiy dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi kunda dalalarda ko‘p martalik ag‘darma va maydalash, sug‘orish oldidan tekislash, chizellash kabi turli agrotexnik operatsiyalarni bir vaqtda va sifatli amalga oshiruvchi kombinatsiyalashgan mashinalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Poliz ekinlari o‘sadigan tuproq qatlamining sifati, uning fizik-kimyoviy xususiyatlari hamda strukturasi mazkur hosilga yuqori hosil olishda hal qiluvchi omil sanaladi. Poliz ekinlari o‘zining ildiz tizimi va o‘suv bosqichlaridan kelib chiqqan holda chuqur va havosi yaxshi, mexanik tarkibi yengil, nam va oziq moddalar bilan boy tuproqni talab qiladi. Tuproqning yetarli darajada bo‘sh va yumshoq bo‘lishi, havo almashinuvi yaxshi bo‘lishi, suv o‘tkazuvchanlik va ushlab turish qobiliyati yuqori, tuproq yuzasi esa tekis, toza va begona o‘tlardan xoli bo‘lishi muhim hisoblanadi. Tuproq tayyorlash texnologiyasi agroiqlim sharoitlari, ekin turi, dalaning relefi va avvalgi ishlovlar natijasiga qarab tanlanadi va takomillashtiriladi [1].



1-rasm. Panjarasimon g‘altaklar:
a) plankasi bilan; b) panjarali tasmasi bilan

Panjarasimon g‘altaklarning asosiy kamchiligi quyidagi hodisadir-panjara orasiga tushgan tuproq bo‘laklari g‘altakning ichki bo‘shlig‘idan uchib chiqib, tuproq yuzasida buzilmasdan qoladi [4; 169-b.].

An’anaviy texnologiyada har bir texnologik operatsiya uchun alohida chiqadigan texnik vositalar ko‘plab vaqt va energiyani sarf qilishga olib keladi, shuningdek, tuproq unumdorligini pasaytiruvchi ko‘plab mexanik jarayonlarni paydo qiladi. Kombinatsiyalashgan mashinalar esa bir urinishda bir nechta texnologik operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bunday texnikalar tuproqni chuqur yumshatish, mayda bo‘laklarga ajratish, tekislashtirish, begona o‘tlarni yo‘q qilish, mineral o‘g‘itlarni kiritish va urug‘lik yotqizishni bir vaqtning o‘zida amalga oshirishi mumkin [2].




2-rasm. Spiralsimon tuproqqa ishlov berish g‘altak

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

O‘ram chapga, o‘ngga yo‘naltirilishi mumkin. Bundan tashqari, o‘ramlar birga qo‘shilib bajarilishi mumkin. Ushbu g‘altaklardan foydalanish tufayli kichik o‘rkachli profilga ega bo‘lgan ustki yumshatilgan qatlam hosil bo‘ladi. Bunday qatlamning shakllanishi ekish qatlamining tuzilishi sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo, bu konstruksiya tuproq zichligining optimal qiymatiga va uning dala yuzasi bo‘yicha bir-xil taqsimlanishiga erishish uchun imkon bermaydi.

Tuproq yuzasini tekislash uchun tuproqni dumalatadigan qurilma ishlatiladi (3-rasm), u ustiga ikkita konussimon g‘altaklar o‘rnatilgan rama shaklida qilingan. Har bir g‘altakning kattaroq bo‘lgan asosi botiq, kichikrog‘i esa qavariq qilingan [7; 5-b.].



3-rasm. Tuproqni dumalatish uchun qurilma

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amaliyotda kombinatsiyalashgan mashinalardan foydalanish poliz ekinlari uchun tuproqni tayyorlash ishlarida quyidagi asosiy afzalliklarni beradi:

Birinchidan, texnologik operatsiyalar qisqarishi sababli mehnat va vaqt sarfi, shuningdek, yoqilg‘i-ekspulatatsiya xarajatlari kamayadi. Ikkinchidan, tuproqqa ko‘p martalik ishlov natijasida uning tabiiy strukturasiga salbiy ta’siri kamayadi, bu esa optimal suv-havo hamda oziqa almashinuvi uchun qulay mikroiqlimni ta’minlaydi. Shu bilan birga, kombinatsiyalashgan mashinalar yordamida texnologik jarayonlarning uyg‘un tashkil etilishi sababli hosildorlik yuqori bo‘ladi. Hozirda O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda poliz ekinlariga mo‘ljallangan turli maydalovchi, chizellovchi, frezalovchi, kultivatorli kombinatsiyalangan mashinalar ishlab chiqilgan. Ularning asosiy konstruktsion farqi ish organlari va yordamchi moslamalarning bir-biri bilan uyg‘unlashuvidadir. Masalan, ayrim modellarda old qismga diskli yumshatkichlar, markaziy qismga frezali parraklar, orqa qismga tekislovchi va silliqlovchi g‘altaklar biriktirilgan bo‘ladi. Bu ularni yuqori samaradorlikda va sifatli ishlashini kafolatlaydi. Ba’zi mashinalarda esa chuqur bo‘yig‘li chizellash va silliqlovchi operatsiyalar bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. Bunday mashinalarning yirikligini cheklash, ish unumdorligini oshirish va tuproq silliqlangan qatlamining zichligini boshqarish bilan birga, ularning mobil va ko‘chma variantlari ham ishlab chiqilmoqda. Statistik va amaliy

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

tadqiqotlar natijasida, kombinatsiyalashgan mashinalar yordamida poliz ekinlari uchun optimal strukturaga ega, begona o‘tlardan xoli va tozalangan tuproq qatlamini vujudga keltirishga erishiladi [3].

Poliz ekinlari yetishtirishda energiya va yoqilg‘i-moylash materiallaridan tejamli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Kombinatsiyalashgan mashinalar bir necha agrotexnik operatsiyalarni bir vaqtning o‘zida bajargani sababli, traktor va boshqa texnikalarning dalada ko‘p harakatlanishini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa yoqilg‘i sarfini, havoga chiqariladigan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish orqali ekologik tozalikni ham ta’minlaydi. Shuningdek, mashinalarning bir marotaba yurishi natijasida tuproq qatlamlari ko‘proq muhofaza qilinadi, havosi-shunoslik, namligi, toprak strukturasining tabiiy yaxlitligi saqlanib qoladi. Bu, o‘z navbatida, o‘simliklarning ildizlari uchun eng qulay muhitning yaratilishi, agrobiotsenozda foydali mikroorganizmlar sonining ko‘payishi, tuproq unumdorligi va ekin kasalliklariga chidamliligining ortishiga olib keladi [5].

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar asosida kombinatsiyalashgan mashinalarning samaradorligini yanada oshirish uchun turli me’yoriy nazoratchilar, elektron boshqaruv modullari, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar, masofaviy monitoring va avtomatlashtirilgan parametr boshqaruv modullaridan foydalanilmoqda. Bunday qurilma va dasturlar tuproq chuqurligi, strukturasi, namlik, zichlik, harorat kabi ko‘rsatkichlarni uzluksiz nazorat qilib, ishlov sifatini optimallashga xizmat qiladi. Dala sharoitida zamonaviy sensorga ega kombinatsiyalashgan mashinalar yordamida bog‘lanmagan tuproq qatlamlarining o‘zgarishini real vaqtda monitoring qilish va shu asosda zaruriy texnologik yechimlarni tezkor qabul qilish mumkin bo‘lmoqda. Shu yo‘l bilan har bir dalaning o‘ziga xos tuproq-iqlim sharoitiga mos individual parametrlarda tuproq ishlovi olib boriladi [6].

Kombinatsiyalashgan mashinalar yordamida agrotexnik tadbirlarning minimalizatsiyalashuvi, ya’ni tuproqqa minimal ishlov berish tamoyili asosida o‘tkazilishi tuproq eroziyasining oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega. Kamroq mexanik reja va ko‘p martalik ishlovdan voz kechish natijasida tuproq sathida o‘simlik qoldiqlari ko‘proq saqlanib, bu qatlamlarning shamol va suv eroziyasidan himoya qilinishini ta’minlaydi. Shu tarzda, dalaning unumdor qatlami uzoq muddat asrab qolinishiga, ekinlarning uzluksiz oziqlanishi va barqaror hosildorligiga erishiladi. Mavjud amaliyot va ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kombinatsiyalashgan mashinalardan foydalanish natijasida poliz ekinlari uchun yana ko‘plab muhim natijalarga erishish mumkin. Poliz ekinlarining urug‘ini yuqori sifatli va chuqurligi bir xil qatlamga ekish, begona o‘tlarning dalada tez va samarali yo‘q qilinishi, dalaning silliq holatga keltirilishi evaziga hosildorlik bir necha barobar oshdi. Bundan tashqari, kombinatsiyalashgan texnika yordamida ishlov berilgan tuproqda suvning ushlanish koeffitsiyenti yuqori bo‘ladi, ildiz tizimi mustahkam rivojlanadi, o‘simliklarning qayta-davriy kasalliklarga chidamliligini oshadi. Bu natijalarning barchasi fermer xo‘jaligi daromadlarini ham orttiradi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Kombinatsiyalashgan mashinalarni ekspluatatsiya qilish jarayonida ayrim muammo va kamchiliklarga duch kelish mumkin. Asosan, yangi texnikaning narxi yuqoriligi, xizmat ko‘rsatish va ehtiyot qismlarni o‘z vaqtida yetkazib berilmasligi, kadrlarning bilim va ko‘nikmalarining yetarli emasligi, dalaning notekisligi, yer namligi va boshqa tabiiy-texnik to‘siqlar samaradorlikka ta’sir etishi mumkin. Bu muammolarning oldini olish uchun fermerlar va dehqonlar tizimli ravishda innovatsion texnologiyalar, tajribali mexanizatorlar, kompleks ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta’minlanishi zarur. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy texnologiyalarning muvofiqlik darajasini oshirish, yangi texnikani yer sharoitiga mos laborator va dala sinovlaridan o‘tkazish orqali amaliyotga tatbiq qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agrosanoat kompleksida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish, natijalarini amaliyotga tatbiq etish ham kombinatsiyalashgan mashinalardan foydalanish samaradorligini yanada oshiradi [8].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, poliz ekinlari yetishtirishda tuproq tayyorlash uchun kombinatsiyalashgan mashinalardan foydalanish zamonaviy agrotexnologiyalarning eng yuqori darajasini aks ettiradi. Bunday texnika yordamida dehqonchilik ishlarini mexanizatsiyalash, mehnat va vaqt sarfini kamaytirish, yoqilg‘i va energiyadan tejamli foydalanish, shuningdek, tuproqning tabiiy strukturasini muhofaza qilish va yuqori hosildorlik olish mumkin. Bunda har bir bog‘ning tuproq-iqlim sharoiti va poliz ekinining biologik xususiyatlari hisobga olinib, texnologik operatsiyalarning moslashtirilgan holda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois, kombinatsiyalashgan mashinalar yordamida amalga oshirilgan sifatli tuproq tayyorlash ekinlarning sog‘lom o‘sishi va barqaror hosil olish uchun muhim zamin yaratar ekan, tinimsiz ilmiy-texnik taraqqiyot va agrotexnik tajribalar natijalari doimo amaliyotga tatbiq qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toshtemirov Sh.R., Tursunov I.X., Baymuradov K.A. Poliz ekinlari agrotexnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
2. Uljayev Z.T., Melioratsiya va dehqonchilik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
3. Xamidov A.A., Agrotexnikaning asoslari. – Toshkent: Mehnat, 2018.
4. Егоров А.С. Разработка орудия для прикатывания почвы с обоснованием его оптимальных параметров и режимов работы: дис. ... канд. техн. наук: – Ульяновск, 2020. – 169 с.
5. To‘xtayev O.E., Nasriddinov M.K. Tuproq ishlash mashinalari va ularni ekspluatatsiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2020.
6. Bobojonov O.S., Texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash. – Toshkent: Universitet, 2015.

7. А.С. № 1189360. Орудие для прикатывания почвы / Ю.В. Шутов, Ю.И. Матяшин, В.А. Домрачеев, Н.А. В.А. Семенров // Бюл. 18.1985.– № 11. – С. 4.

8. Mukimov M.M., Islomov J.I., Texnologiyalarning ekologik asoslari. – Toshkent: Imkon, 2021.

9. Qodirov S.Q., O‘simlikshunoslikda innovatsion texnologiyalar. – Samarqand: Zarafshon, 2017.

10. Chuykov V.Ya. Kombinirovannye pochvoobrabatyvayushchie mashiny. – Moskva: Kolos, 2019.

11. Isoqov Q.I. Yer resurslaridan oqilona foydalanish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy